

OILAVIY QADRIYATLAR – MILLIY MA’NAVIYAT POYDEVORI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlaridan birida: “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat”¹, deya ta’kidlaganlari bejiz emas, albatta.

Azaldan ma’lumki, zardushtiylilikning muqaddas kitobi “Avesto”dan tortib hozirgi kungacha barcha ijod ahillarining asarlariga nazar soladigan bo‘lsak, yuksak axloqiy fazilatlarni kamol toptirish va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash masalasi asosiy o‘rin egallab kelmoqda. O‘zbek oilasi o‘zida qadimiy ma’naviy qadriyat va an’analarni, udum va rasm-rusumlarni, ma’naviy-madaniy merosni saqlab kelgan va kelmoqda.

Shuningdek, ayol-qizlar haq-huquqini e’zozlash, oila daxlsizligi va mustahkamligiga erishish, ota-onalarning farzand oldidagi, farzandlarning esa ota-ona oldidagi burchi, qizlarni oilaviy turmushga tayyorlash xususida ham ibratomuz fikrlar mavjud. Bu manbalarda berilgan ma’lumotlar xalqimiz uchun milliy qadriyatlarga aylanib, qariyb 12 asrdiki itoat etib kelgan Islom aqidolari tarzida xalqimiz genofondiga kirib, ruhiyati qa’riga singib ketgan.

Millat – o‘zining qadriyatlarini vujudga keltirib, ularning yangi-yangi qirralarini va jihatlarini sayqallashtirib, taraqqiyot jarayonida takomillashtirib turishi ma’nosida o‘z qadriyatlarining haqiqiy egasi, makon va zamondagi ilgarilanma harakatdan iborat o‘zgarishlar jarayonida ularni o‘tmishdan kelajak tomon yetkazib beradigan eng asosiy obyektidir. Millatning tanazzuli – milliy qadriyatlarning tanazzulidir! Bu – oqibat-natijada ushbu qadriyatlarning egasiz qolish xavfini tug‘diradi.

Zotan, har bir millat o‘z qadriyatlarining yaratuvchisigina emas, balki uni asrab avaylovchi va kelajakka yetkazuvchisi hamdir. Milliy qadriyatlarning saqlanishi uchun har bir millatning o‘zi mas’uldir. Bu esa mas’ullikning faqat alohida shaxslarga emas, balki butun millatga ham xos namoyon bo‘lishini anglatadi.

Oilada ota-onaning tinch-totuvligi va o‘zaro mehr-muhabbati, dunyoqarashi, ma’naviy saviyasi, qiziqishi, e’tiqodi, jamiyatdagi mavqei, husn-latofati farzand tarbiyasiga ma’lum ma’noda ta’sir o‘tkazadi. Bunday oilada tarbiyalangan farzandlar go‘zallikka ishtiyoqmand, ruhiy tetik, bag‘ri butun, hayotga qiziquvchan, xotirjam, tinch-totuv oilaviy hayot kechirishga tayyor bo‘lib o‘sadilar. Sharqda milliy qadriyatlarni farzandlar ongi va qalbiga singdirish oiladan boshlanadi.

Qadriyatlar o‘zbek xalqining bebaho boyligi sifatida madaniy-ma’rifiy hodisalar, urf-odatlar, an’analari zahirida inson qadr-qimmatining oshishiga xizmat qiladi. O‘zimizga xos sharqona mehnatsevarlik, sadoqat, samimiyat, ishonch, Vatanni sevmqlik, adolat, poklik, to‘g‘rilik singari fazilatlar shaxsiy namuna sifatida ota-ona orqali farzandga o‘tadi. Urf-odat va an’analar oilaviy qadriyat sifatida ham farzandlarning hayot tarziga yoshliklaridan ota-onalariga ko‘mak berish, so‘ngra o‘z oilalari uchun qayg‘urish hissini singdirib borishda asosiy rolni bajaradi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-yanvardagi ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidagi nutqi.

Buyuk mutakallim Imom Muhammad G‘azzoliy “Hujjat ul-islom” va “Kimyoi Saodat”² asarlarida shaxs kamoloti haqida fikr yuritib, “avvalgi ilm o‘z nafsini tanimoqdir”, – deydi. Abu Nasr Forobiy insoniyatning barcha qobiliyatlari tug‘ma irsiy va hayotda orttirilgan bo‘lishini, bola tarbiyasida har ikkisini e‘tiborga olish zarurligini uqtiradi. Abu Ali ibn Sino “Tadbiri manzil”³ asarida oilaviy tarbiya masalalariga keng to‘xtalib, bolaning axloqiy tarbiyasi uning ilk rivojlanish davridan boshlanishi zarurligini, ota-onalar tarbiya qonuniyatlarini mukammal o‘zlashtirmog‘i lozimligini uqtiradi.

Shunday ishlardan biri hamyurtimiz Burhoniddin Marg‘inoniy qalamiga mansub “Hidoya”⁴ asarining “Nikoh kitobi” va “Taloq kitobi” deb nomlangan boblarida er va ayol munosabatlarida yuzaga kelish ehtimoli bo‘lgan qator muammolarning sha‘riy yechimlari berilgan.

Oiladagi ma‘naviy muhit, shaxslararo munosabatlar bolaning tarbiyasida juda katta rol o‘ynaydi. Ulug‘ mutafakkir Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq” kitobida “Alloh taolo insonlarni asl xilqatda iste‘dod va qobiliyatli, yaxshi bilan yomonni, foyda bilan zararni, oq bilan qorani ajratadigan qilib yaratgan. Lekin insondagi bu qobiliyatni kamolga yetkazish tarbiya bilan bo‘lur. Qush uyasida ko‘rganini qilar”⁵, – deydi.

XX asr boshlaridagi ma‘rifatparvarlik harakatining asoschilaridan biri Fitratning “Oila” asarida oila asosini to‘g‘ri qurish, oilada yosh avlodga jismoniy, aqliy va axloqiy tarbiya berish orqali mana shu turg‘unlikdan qutulish, jamiyatni isloh qilish mumkinligini bayon qilgan: “Millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog‘liqdir... Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo‘ladi”⁶, – deb yozadi.

Har bir oilada oilaviy qadriyatlar mustahkam bo‘lishlari uchun ota-onalarning o‘zlari farzand tarbiyasi haqidagi bilimlar bilan doimo qurollanishlari talab etiladi. Aynan er va ayolning oilani barpo etish motivlari va maqsadlari haqida bilimga ega emasligi, umumiy qadriyatlarni tushunishning yo‘qligi, mustahkam oilaviy an‘analarning shakllanmaganligidir.

Oilaviy qadriyatlar moddiy va axloqiy-ma‘naviy qadriyatlardan iboratdir. Oilaning moddiy qadriyatlari oilani iqtisodiy jihatdan ehtiyojlarini ta‘minlashga xizmat qiladigan, avlod-ajdodlar tomonidan shakllantirib kelinadigan moddiy resurslardan iboratdir.

Oila va jamiyatning moddiy barqarorligi, oila a‘zolarining baxtlik indeksini namoyon etadigan indikatorlardan muhimi oila ma‘naviyati bo‘lib, uning asl maqsadi – oila a‘zolarining umuminsoniy va milliy qadriyatlarga, axloq-odob qoidalariga kundalik hayotida amal qilgan holda hayotdan rozi bo‘lib yashash demak.

Oilaviy qadriyatlar oila a‘zolari tomonidan qadrlanadigan, sulolalar g‘ururiga aylangan, avloddan avlodga ma‘naviy boylik sifatida o‘tib, boyib, takomillashib jamiyatda oila imijini namoyon etadigan dunyoviy va diniy an‘analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, axloq-odob qoidalaridan iborat. Shuningdek, oila a‘zolari imijini belgilovchi axloq-odob qoidalari ham hisoblanadi.

Oilaviy qadriyatlarning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, ularga rioya etish oilaning, oila a‘zolarining jamiyatda tutgan o‘rnini belgilaydi. Oilaviy qadriyatlar milliy-umuminsoniy-milliy tizimi asosida o‘zini o‘zi namoyon etadi va takomillashib boradi.

² Muhammad G‘azzoliy “Kimyoi Saodat” asari. “Toshkent” nashriyoti, 2005-yil. - B. 233.

³ Abu Ali ibn Sino “Tadbiri manzil”. Abdulla Qodiriy nomidagi nashriyot: 1993. - B. 304.

⁴ Burhoniddin Marg‘inoniy “Hidoya”. HILOL NASHR nashriyoti. 2022. - B. 894.

⁵ Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yohud axloq”. - Toshkent: “O‘qituvchi”, 1967. - B. 21.

⁶ Fitrat A. “Oila yoki oila boshqarish tartiblari”. - Toshkent: “Ma‘naviyat”, 1998. - B. 42.

Oilaviy ma'naviy qadriyatlarning mazmuniy asoslari quyidagilardan iborat:

- milliy kiyimlar;
- ro'zg'or yuritish qonun-qoidalar;
- oilaviy marosimlar (to'y va motam marosimlari, diniy va milliy bayramlar, rasm-rusumlar, urfodatlar va boshqalar);
- milliy kasb-hunar mahsulotlari (millatning ichki va tashqi dunyosini namoyon etuvchi milliy liboslar (nimcha, turli sumkachalar, kelinlar ro'molchasi, kuyov to'ni va boshqa milliy liboslar), kashtachilik, kasanachilik, hunarmandchilik, zargarlik, do'ppido'zlik, tikuvchilik,
- dehqonchilik mahsulotlari;
- axloq-odob qoidalar.

Mazkur qadriyatlar oila ma'naviyatining asosiy poydevori hisoblanadi.

Oila ma'naviyatining asosiy mazmuni:

milliy va sulolaviy qadriyatlar asosida er va xotin, ota-ona va farzandlar, qaynona-kelin o'rtasida o'zaro ma'naviy-axloqiy munosabatlarga ko'ra, kundalik hayot tartib-qoidalariga rioya etish, oila an'alariga muhabbat, sadoqat;

bir-birining qadr-qimmatini asrash, kamtarlik, sabr-toqatlilik;

har qanday vaziyatda o'z ma'naviyatini namoyon eta bilish;

muloqot madaniyati, ongli intizom, milliy odob doirasida so'zlash, sermulohazalilik;

saranjom-sarishtalilik, orastalilik;

turli noaxloqiy illatlardan xolis bo'lish;

e'tiqodlilik, milliy iftixor tuyg'usiga ega bo'lish, yurish-turish, xatti-harakat hamda sog'lom turmush tarzi (kiyinish, ovqatlanish, shaxsiy gigiyena, jismoniy salomatlikni saqlash) qoidalariga amal qilish;

ro'zg'orshunoslik madaniyatiga amal qilish, kattalarga hurmatda va kichiklarga nisbatan izzatda bo'lish;

adabiyot va san'atga muhabbatni namoyon etish;

turli millat urf-odatlar, an'analari, tili, dini va madaniyatiga nisbatan hurmat, bag'rikenglik;

mehnat madaniyati va boshqalardan iborat.

Oilaviy qadriyatlarning maqsadi yuqoridagi komponentlarni oilaning har bir a'zosi o'z xatti-harakati, xulq-atvori, yurish-turishi, kiyinishi orqali kundalik faoliyatida ongli ravishda namoyon etishdan iborat.

Oilalar ma'naviy muhiti sof ekan, jamiyat mustahkam bo'ladi. Mustahkam jamiyatda esa tinchlik, farovonlik, osoyishtalik va to'kinlikning barqarorligi ta'minlanadi. Jamiyatimizning osoyishtaligi va barqaror rivojlanishi hamda oilaviy qadriyatlarning mustahkamlanishiga munosib hissa qo'shish esa har bir shaxsning vazifasidir. Shu boisdan mamlakatimizda oilalar mustahkamligiga jamiyat barqarorligining muhim sharti deb qaraladi.

Husniddin Norqulov,

*Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi, pedagogika fanlari
nomzodi, dotsent*